


FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI SOVUTGICH

UZBEK

Iltilmos, ushbu jihozni ishlatishdan avval qo'llanmani diqqat bilan o'qing va kelgusida foydalanish uchun saqlab qo'ying




MFL68489002

MUNDARIJA

MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI	3
O'RNATISH	10
ICHKI QISMLAR	11
ISHLATISH AMALLARI	13

Ishga tushirish	
Haroratni o'rnatishdan oldin	
Eshik Signali	
O'zini-o'zi tekshirish	
Muzlatgich bo'linmasini boshqarish	
Sovutgich bo'linmasini boshqarish	
Tez muzlatish	
Boladan himoyalab qulflash (ixtiyoriy)	
Eshikdagi ionizatsiya va sovutish /	
Eshikdagi tokchalarni tez sovutish (Ixtiyoriy)	
Muz hosil qilish (ixtiyoriy)	
Ochiladigan burchak/Yangi holda saqlash	
hududi (ixtiyoriy)	
Sabzavotlar tortmasi	
Suv dispenseri (ixtiyoriy)	
Aqlli diagnostika tizimi (ixtiyoriy)	
Gigiyenik salqinlash (ixtiyoriy)	
Muzdan tushirish	
Dezodorat qurilmasi (ixtiyoriy)	
Sutli mahsulotlar burchagi (ixtiyoriy)	
Chiroqni Almashtirish	
Invertor-Yoqilgan xususiyati (Ixtiyoriy)	

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASH BO'YICHA TAKLIFLAR	22
TOZALASH	23
UMUMIY MA'LUMOTLAR	25
MUHIM OGOHLANTIRISHLAR	25
MUTAXASSIS CHAQIRISHDAN AVVAL	27



MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI



OGOHLANTIRISH

OGOHLANTIRISH Yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki jarohat olish xavfini kamaytirish uchun sovuqchidan foydalanganda quyidagi asosiy ehtiyot choralariga amal qiling. Ushbu moslamadan foydalanishdan avval barcha ko'rsatmalarni o'qib chiqing.

TEXNIKA XAVFSIZLIGI BO'YICHA ASOSIY CHORALAR

Ushbu yo'riqnomaga ko'pgina muhim xavfsizlik ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan. Barcha xavfsizlik ko'rsatmalarini o'qib va ularga amal qiling.



Bu xavfsizlik signali ramzidir. Bu sizga jiddiy jarohat yetkazishi yoki mahsulotning shikastlanishiga sabab bo'ladigan xavf haqida ogohlantiradi. Barcha xavfsizlik haqidagi xabarlardan oldin xavfsizlik haqidagi ogohlantirish belgisi va xavf haqidagi signal so'zlari XAVFLI, OGOHLANTIRISH yoki DIQQAT deb keladi. Ushbu so'zlar quyidagilarni bildiradi:



DIQQAT

Ko'rsatmalarga rioya qilmasangiz, jiddiy jarohatlashi mumkin.



XAVFLI OGOHLANTIRISH

Yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki jarohat olish xavfini kamaytirish uchun quyidagi asosiy ehtiyot choralariga amal qiling. Ushbu moslamadan foydalanishdan avval barcha ko'rsatmalarni o'qib chiqing.



DIQQAT

Xatarli vaziyat haqida xabar berib, agar amal qilinmasa kichik yoki o'rta jarohat yoki mahsulotga shikast yetkazilishi mumkin.

Barcha xavfsizlik xabarlarini xavfni aniqlashtirib beradi va sizga jarohatning oldini olish yo'llarini ko'rsatadi hamda ularga amal qilinmasa nima bo'lishi haqida tushuntirib beradi.



OGOHLANTIRISH

-  Moslama to'sig'idagi yoki ichiga qurilgan qurilma ventilyatsiya qismini ochiq holda saqlang.
-  Muz erishi jarayonini tezlashtirish uchun ishlab chiqaruvchi tavsiya qilganlaridan o'zga mexanik qurilmalar va boshqa vositalardan foydalanmang.
-  Sovutish moddasining aylanish sxemasiga zarar yetkazmang. Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlaydigan bo'linmasida elektr moslamalaridan foydalanmang. Ishlab chiqaruvchi tavsiya qilgan holatlar bundan mustasno.
-  Moslama ichida foydalanilgan sovutish moddasi hamda izolyatsiya ichidagi xaydaladigan gaz maxsus chiqitga chiqarish amaliyotini talab etadi. Chiqitga chiqarayotganda, iltimos, xizmat agenti yoki malakali shaxsga murojaat qiling.

MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI



Agar R600a markali moddadan foydalanilsa

Moslamada kam miqdorda atrof-muhitga moslashuvchi biroq yonuvchan izobutan sovutish moddasi (R600a) bor. Muzlatgich kamerasini bir joydan ikkinchi joyga tashish va so'ng o'rnatishda jihoz sovutish tizimining hech bir joyi shikastlanmaganligini tekshirish borasida ehtiyot choralari ko'rilishi lozim. Quvurdan sovutuvchi modda otilib chiqsa, ko'zga tegib jarohat yetkazishi mumkin. Agar gaz sizib chiqishi aniqlangan bo'lsa, moslama turgan xonada har qanday olov o'chog'i yoki o't olish manbalarini uzoqlashtiring va xonani shamollating.

Moslamada biron bir shikastlanish alomatlari bo'lsa, uni hech qachon o'rnatmang. Agar shunday alomat bo'lsa, dilingiz bilan maslahatlashing.



1. Barcha elektr va elektron mahsulotlar maishiy chiqitlardan ayri holda mahalliy mutasaddi tashkilotlar belgilab bergan usulda va joyda chiqitga chiqarilishi kerak.
2. Eski moslamangizni to'g'ri chiqitga chiqarish atrof-muhit hamda inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olishga yordam beradi.


3. Eski moslamangizni chiqitga chiqarish bo'yicha batafsilroq ma'lumot olish uchun, iltimos, mahalliy maxsus chiqitga chiqarish tashkiloti yoki mahsulotni xarid qilgan xizmat markazi yoki do'koniga murojaat qiling.
(*IZOH - 1,2,3 bandlar Iordaniya Qoidalari va boshqa mamlakat qoidalariga amal qiladi)

MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

1. Elektr tokini ulaganda


Tegishli rozetkadan foydalanish kerak.

- Rozetkada bir nechta qurilmalardan foydalanish yong'in kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.



Elektr shtepseli yuqoriga qarab qolishiga yoki sovutgich orqasida siqilib qolishiga yo'l qo'ymang.

Shtepsel shikastlanib yong'in yoki elektr zarbasiga sabab bo'lishi mumkin.




MUHM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

1. Elektr tokini ulaganda


Elektr simi bukilib qolishiga yoki og'ir narsa ostida bosilib qolishiga yo'l qo'ymang.

Aks holda elektr kabelini shikastlashi va yong'in yoki elektr toki urishini keltirib chiqarishi mumkin.




Elektr shtepselini uzaytirmang yoki o'zgartirmang.

U elektr simini shikastlaydi va elektr toki urishi yoki yong'iniga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichni tozalayotganda, joyidan surayotganda yoki LED chirog'ini almashtirayotganda shtepselni rozetkadan ajrating.

- aks holda unga shikast yetishi va elektr toki urishi mumkin.




Elektr simini cho'zmang yoki shtepselni ham qo'llaringiz bilan tegmang.

- aks holda unga shikast yetishi va elektr toki urishi mumkin.




Shtepselga tekkan chang yoki ho'lni artib tashlang va vilkalarini ehtiyotkorlik bilan joylashtiring.

Chang, suv yoki mahkam joylashmagan vilka yong'in yoki elektr zarbasining urishiga olib kelishi mumkin.




Yerga sim ulashni unutmang.

Noto'g'ri yerga ulash qurilmaning shikastlanishi va elektr zarbasiga sabab bo'lishi mumkin



Elektr simi shikastlansa yoki rozetka darchalari kengayib ketgan bo'lsa, ulardan foydalanmang.

Aks holda unga shikast yetishi yoki elektr toki urishi mumkin.



Eshikning toblangan oynasi ta'sir ostida sinishi mumkin, singan parchalariga tegmang, ular jarohat yetkazishi mumkin.



2. Sovutgichdan foydalanganda

Og'ir yoki xavfli narsalarni (suyuqlikka ega idish) sovutgich ustiga qo'ymang.

U eshikni ochganda yoki yopganda yerga tushib jarohatlanishi yoki elektr toki urishiga sabab bo'lishi mumkin.



Eshik yoki javonlariga yoki muzlatgich kamerasiga osilmang.

U sovutgich yiqilishiga yoki qo'llarni jarohatlashiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa bolalarga yuqoridagi ishni qilishga yo'l qo'ymang.



MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

2. Sovutgichdan foydalanganda


Sovutgichni ho'l yoki suv va yomg'ir tegishi mumkin bo'lgan joylarda joylashtirmang.

Elektr qismlarining izolyatsiyasi shikastlanishi elektr tarafining ochilishiga olib kelishi mumkin.



Sovutgich yonida yoki ichida efir, benzin, spirt, dori, suyuq gaz, sprey yoki kosmetika kabi yonuvchan narsalarni joylashtirmang.

Bu portlash yoki jarohatlanishga olib kelishi mumkin.




Hidni ketkazish uchun ichida fendan yoki shamdan foydalanmang

Bu portlash yoki yong'inga olib kelishi mumkin.




Sovutgichga tibbiy moddalar yoki o'quv qurollarini qo'ymang.

Qat'iy harorat talablariga rioya qilinishi shart bo'lgan narsalar saqlansa, ular aynishi yoki kutilmagan reaksiyaga sabab bo'lishi mumkin.




Sovutgichning oldida yonuvchan aerozollardan foydalanmang.

Bu yong'inga sabab bo'lishi mumkin.




Yonuvchan gaz kabi chiquvchi gazlar __bo'lgan joylardan uzoqda o'rnatang.

Bu yong'inga sabab bo'lishi mumkin.




Sovutgich ustiga kosa, pardoz anjomi, gulli vaza, tibbiy moddalar bo'lgan yoki suv bor idishlarni qo'ymang.

U yerga tushib yong'in, elektr toki urishi yoki jarohat yetkazishi mumkin.



Suvda qolgan sovutgichdan yaxshilab tekshirilgandan so'ng foydalaning.

Elektr toki urishi yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.




MUHM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

2. Sovutgichdan foydalanganda

Gaz sizib chiqqanida sovutgichni yoki rozetkani tegmang va xonani darhol shamollating.


Tashiyotganda, yetkazib berayotganda yoki o'rnatayotganda, agar gaz (1) Tetrafluroetan (R134a) bo'lsa - atrof-muhitga zararsiz va yonuvchan emasligidan qat'iy nazar, uning kam



miqdordagi bug'i ham teriga, ko'zga ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu bois atrof yaxshi shamollatiladigan bo'lishi shart. (2) Tabiiy gaz (izobutan, R600a) - atrof-muhitga zararsiz - biroq, hatto kichik miqdori ham (80-90g) yonuvchandir. Gaz sizib chiqqanda yetkazib berish paytida, o'rnatayotganda yoki foydalanayotganda qattiq shikast yetishi tufayli sizib chiqqanida kichkina uchqun ham yong'in yoki portlashga sabab bo'lishi mumkin.

Malakali muhandisdan boshqa hech kimga sovutgichni ochib tashlash, tuzatish yoki o'zgartirish kiritishga yo'qo'ymang.

Bu jarohat elektr zarbasi yoki yong'iniga sabab bo'lishi mumkin.




Sovutgichni chiqitga chiqarayotganda, eshikdan rezinali qistirma kabi qoplama materiallarini olib tashlang

U ichida bolalarning qulflanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.




Sovutgich ostidagi sovuq havo chiqish joyiga yoki issiqlikdan saqlovchi panjara (tortib chiqish teshigi)ga qo'lingizni yoki metal buyumlarni tiqmang.

Aks holda u elektr toki urishi yoki jarohatlashi mumkin.




Sovutgichni tashqarisiga yoki ichkarisiga suv sepmang yoki benzin yoki suvultirgich bilan yuvmang.

Elektr qismlarining izolyatsiyasi shikastlanishi elektr tarafining ochilishiga olib kelishi mumkin.




Sovutgichdan g'alati hid yoki tutun chiqsa, elektr rozetkadan darhol ajrating va xizmat markaziga murojaat qiling.

Bu yong'iniga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichdan maishiy maqsadlardan tashqari maqsadlarda (dori vositalarini saqlash yoki materiallarni sinashda, kemada va h.k.da) foydalanmang.

U yong'in, elektr toki urishi saqlanadigan moddaning buzilishi yoki kimyoviy reaksiya kabi kutilmagan xavfga sabab bo'lishi mumkin.



Sovutgichni qattiq va tekis joyda o'rnatang.

Tekis va barqaror bo'lmagan joyda o'rnatish eshikni ochib-yopganda sovutgichning yiqilishiga va jarohatlashiga sabab bo'lishi mumkin.



Eski sovutgichingizni nima qilishingiz kerak

Sovutgichingiz qayta ishlovchi suyuq (sovutuvchi modda moylovchi) materiallarga, ega bo'lib, ularni qayta ishlash, imkoni mumkin bo'lganligi sababli chiqitlarni qayta ishlash joyiga berib yuborish shart.



MUHIM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

2. Sovutgichdan foydalanganda

Chaqmoq yoki momaqaldiroq bo'lganda yoki uzoq vaqt foydalanilmaganda shetpselni rozetkadan ajrating.

Elektr quvvatidan zarba olish yoki yong'in chiqish xavfi mavjud.




Orqa qopqog'ini ochmang.



Elektr tokini ulashdan oldin barcha tarkibiy qismlarni o'z joyiga joylashtiring.



Hech qachon yoqilgan shamlarni sovutgich ustiga qo'ymang, yong'in chiqishi yoki mahsulot shikastlanish xavfi bor.




⚠️ DIQQAT

Ushbu ko'rsatmalarga amal qilmaslik sog'likka, uyga yoki mebelga zarar yetkazishi mumkin. Iltimos, doimo ehtiyotkor bo'ling.

Sovutgich ichidagi mahsulot yoki idishlarni ho'l qo'llaringiz bilan tegmang.

Qo'lingiz muzlab yopishib qolishi mumkin.



Shisha yoki shisha idishlarni muzlatgich bo'linmasiga qo'ymang.

U shisha ichidagi narsaning muzlashiga sabab bo'lishi va idish sinib jarohatlashi mumkin.



Shtepselni qayta ulashdan avval 5 daqiqa yoki undan ko'proq kuting.

U muzlatgichning ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.




Shtepselni simidan tortib rozetkadan chiqarmang. Shtepsel chekkasidan tortib chiqaring.

Aks holda unga shikast yetishi yoki elektr toki urishi mumkin.




Sovutgichni tutqichlaridan ushlagan holda tashing, qo'llaringizni sovutgichning yonorqa taraf ostiga tiqib ko'tarmang.

Ostidagi temir plastina jarohat yetkazishi mumkin.




Sovutgich ostiga qo'lingizni kirgizmang

Aks holda qo'lingiz sirpanib kesib olishingiz mumkin.




MUHM XAVFSIZLIK MA'LUMOTLARI

Idishni eshigidan olishdan avval ichki qismini yaxshilab bo'shating.



Sovutgich eshigini ochib yopganda atrofdagi odamga jarohat yetkazishi mumkin, shuning uchun ehtiyot bo'ling.

Eshikni ochib yopishda uning oraliqlarida oyoq-qo'llaringiz siqilib qolishi mumkin yoki farzandingiz qo'llarini siqib olishi mumkin.




Sovutgich ichiga jonzoatlarni qo'ymang. Uglerodli suvdan foydalanmang.



Eshikga suyanmang, oshiq-moshiqlari bo'shab qolishi mumkin va havo sizib chiqib ishlash samaradorligi kamayishi mumkin.



Gaz bosimi sizib chiqishi mumkin.




Suv idishini ko'rsatmaga muvofiq tozalang.



Tortma, savat va h.k. kabi harakatlanuvchi qismlarni ehtiyot qiling.

Agar tushib ketsa shikastlanishi yoki sinishi mumkin.

Faqat suvdan foydalaning. Agar boshqa suyuqlikdan foydalanilsa, tizim ishlashiga shikast yetishi mumkin. Agar suvdan boshqa suyuqlikdan foydalanish natijasida muammo yuz bersa, ishlab chiqaruvchi buning uchun javobgar bo'lmaydi.



! OGOHLANTIRISH

Iltilimos, pastki tortmalarini tozalashda idish yuvish mashinasidan foydalanmang, yuqori harorat savatlarni shikastlab yaroqsiz holatga keltirishi mumkin.

SOVUTGICH EHTIYOTKORLIK BILAN ISHLAB CHIQRILGAN BO'LIB ENG SO'NGGI TEKNOLOGIYALARNI O'ZIDAMUJASSAM QILGAN.

UNING ISHLASHI VA ISHONCHLILIGI SIZNI QONIQTIRISHIGA ISHONCHIMIZ KOMIL.

SOVUTGICHNI ISHGA TUSHIRISHDAN OLDIN, ILTIMOS, BUKLETNI YAXSHILAB O'QING. U O'RNATISH, ISHLATISH VA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA ANIQ KO'RSATMALARGA EGA VA BA'ZI YORDAMCHI MASLAHATLARINI O'Z ICHIGA OLGAN.

O'RNATISH

1. O'rnatish uchun to'g'ri joy tanlang.
Sovutgichingizni qulay foydalanish mumkin bo'lgan joyga joylashtiring.
2. Moslamani issiqlik manbalarida, quyosh nuri ostida yoki nam joylarda o'rnatmang.
3. Muzlatgich atrofida to'g'ri havo aylanmasini ta'minlash uchun iltimos, yon taraflarida va tepa devor va shiftdan kamida 2 dyuym (5 sm) bo'shliq qoldiring.
4. Tebranishlarning oldini olish uchun blokni tekis darajada o'rnatang. Pol notekisligi o'rnini to'ldirish uchun, daraja sozlovchi boltlarini sozlang. Eshik yopilishiga yordam bo'lishi uchun old tarafi orqa tarafdin bir oz balandroq bo'lishi kerak.
Daraja boltlarini bo'linmani bir oz ko'tarib qulay burish mumkin. Blokni ko'tarish uchun () boltlarni soat mili bo'yicha buring, tushirish uchun () soat miliga qarshi buring.
5. Moslamani 5 sm dan past o'rnatmang, u sovutgichning pasayib ketishiga olib kelishi mumkin.

KEYINGISI


1. Sovutgichingizni yaxshilab tozalang va tashish paytida yig'ilib qolgan changlarni artib tashlang.
2. Muz qutisi ha h.k. kabi aksessuarlarni tegishli joylariga o'rnatang. Ular tashish paytida shikastlanmasligi uchun birga qadoqlangan.
3. Elektr simini (yoki shtepselini) rozetkaga tiqing. Bitta rozetkaga ikkita qurilma ulamang.
4. Oziq-ovqatni qo'yishdan oldin, sovutgichni 8-12 soat davomida qoldiring (Evercool).
Sovutish tegishli ravishda amalga oshayotganligini muzlatgich bo'linmasida sovuq havo aylanmasiga qarab tekshiring.
Sovutgichingiz foydalanish uchun tayyor.

Invertor-Yoqilgan xususiyati (Ixtiyoriy)

Minimal talab: minimum 120 A quvvatga ega bo'lgan batareya muzlatgichning elektr ta'minoti rozetkasiga ulangan holda UPS/Invertor YOQILGAN holda bo'lishi va kamida 600 Vt quvvatga ega bo'lishi kerak.

ICHKI QISMLAR

YUQORI QUVVATLI MODEL KONFIGURATSIIYASI



Izoh


- Ushbu yo'riqnoma turli modellarni o'z ichiga olgan. Siz xarid qilgan sovutgich yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarning ba'zilariga yoki barchasiga ega bo'lishi mumkin.
- Savatlar, tortmalar va javonlar kabi ichki qismlarni to'g'ri joyga joylashtirish energiyani tejash uchun eng samarali usuldir.
- Davomiy rivojlanish tufayli model xususiyatlari o'zgarishi mumkin.

ENERGIYANI TEJASH BO'YICHA MASLAHATLAR


- Iltimos, eshikni uzoq vaqt davomida ochiq qoldirmang, eshikni qisqa vaqt ichida yoping.
- Havo aylanmasi erkin bo'lishi uchun juda ko'p mahsulot qo'yish tavsiya etilmaydi.
- Sovutgich haroratini kerakli darajadan pastroq qilmang. Oziq-ovqatni harorat sensori yoniga qo'ymang.
- Issiq oziq-ovqatni sovutgichga qo'yishdan oldin tashqarida bir oz sovish uchun qoldiring. Sovutgich ichiga qaynoq oziq-ovqatlarni qo'yish yonidagi taomning aynishiga va ko'proq elektr toki xarajatiga olib keladi.
- Havo aylanish darchalarini oziq-ovqat bilan to'sib qo'ymang. Sovuq havo bir tekis aylanishi sovutgich haroratini bir maromda ushlaydi.
- Eshikni ko'p ochmang. Eshikni ochish issiq havoning muzlatgich ichiga kirishiga va haroratning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

ICHKI QISMLAR (Zavodda tavsiya qilingan joy)

GL-4**



GL-3**



Izoh

- Ushbu yo'riqnoma turli modellarni o'z ichiga olgan. Siz xarid qilgan sovutgich yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarning ba'zilariga yoki barchasiga ega bo'lishi mumkin.
- Savatlar, tortmalar va javonlar kabi ichki qismlarni to'g'ri joyga joylashtirish energiyani tejash uchun eng samarali usuldir.
- Davomiy rivojlanish tufayli model xususiyatlari o'zgarishi mumkin.

ENERGIYANI TEJASH BO'YICHA MASLAHATLAR

- Iltimos, eshikni uzoq vaqt davomida ochiq qoldirmang, eshikni qisqa vaqt ichida yoping.
- Havo aylanmasi erkin bo'lishi uchun juda ko'p mahsulot qo'yish tavsiya etilmaydi.
- Sovutgich haroratini kerakli darajadan pastroq qilmang. Oziq-ovqatni harorat sensori yoniga qo'ymang.
- Issiq oziq-ovqatni sovutgichga qo'yishdan oldin tashqarida bir oz sovish uchun qoldiring. Sovutgich ichiga qaynoq oziq-ovqatlarni qo'yish yonidagi taomning aynishiga va ko'proq elektr toki xarajatiga olib keladi.
- Havo aylanish darchalarini oziq-ovqat bilan to'sib qo'ymang. Sovuq havo bir tekis aylanishi sovutgich haroratini bir maromda ushlaydi.
- Eshikni ko'p ochmang. Eshikni ochish issiq havoning muzlatgich ichiga kirishiga va haroratning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

ISHLATISH AMALLARI

ISHGA TUSHIRISH

Sovutgich birinchi bor o'rnatilganda, normal ishlash haroratini hosil qilib olishga qo'ying (24 soat), shundan so'ng yangi yoki muzlatilgan mahsulotlarni joylashtiring.

Agar sovutgich o'chib qolsa, qayta ishga tushirishdan oldin 5 daqiqa davomida kuting.

HARORATNI O'RNATISHDAN AVVAL

- Sovutgich ichidagi harorat xona haroratidan qat'iy nazar barqaror bo'ladi. Harorat sozlanmalari bir marta o'rnatilgandan so'ng (sovutgich va muzlatgich bo'linmalari), zarursiz o'zgartirish tavsiya qilinmaydi.
- Ushbu sovutgichda sovutgich bo'linmasi haroratini boshqarish uchun bitta tugma va muzlatgich haroratini boshqarish uchun bitta tugma o'rnatilgan.
- Sovutgich bo'linmasi boshqaruv tugmasining boshlang'ich harorati '3' yoki '4' darajaga o'rnatilgan.
- Harorat boshqaruvi uchun boshlang'ich o'rnatilgan sovutgich harorati '4' daraja (Oddiy modellar uchun) Harorat boshqaruvi uchun boshlang'ich o'rnatilgan sovutgich harorati '3' daraja (Quvvat uzilishi Doimiy Sovutish rusumlari uchun)
- Ushbu sovutgichda sovutish bo'limida harorat sensori o'rnatilgan. U zaruratga qarab kompressorni avtomatik tarzda ishga tushiradi va to'xtatadi.

ESHIK OGOHLANTIRISH SIGNALI

Sovutgich yoki muzlatgich eshigi 1 daqiqa davomida ochiq qolsa u uch marta ogohlantirish signalini chaladi.


Agar eshik ochiq qolishda davom etsa, u har 30 soniyada signal chaladi.

O'ZINI-O'ZI TEKSHIRISH


- Sovutgichingiz o'zini diagnostika qilish xususiyatini o'z ichiga olgan. Agar u muayyan sohalarida xatolik topsa, mexanikga tuzatish bo'yicha ko'mak sifatida xato kodini ko'rsatadi. Xato kodi aks ettirilsa, boshqa boshqaruv va aks etish funksiyalari ishlamaydi.
- Agar xato haqidagi kod paydo bo'lsa, xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Elektr simini rozetkadan uzming.

MUZLATGICH BO'LINMASINI BOSHQARISH

- Boshqaruv sozlamasining soni yuqori bo'lgan sayin, muzlatgich bo'linmasidagi harorat shuncha pasayadi.
- Sovutgich va muzlatgich ichidagi harorat belgilangan sovuq havo yordamida boshqarilganligi tufayli, agar muzlatgich bo'linmasidagi havo sovuqroq bo'lsa, sovutgich ichidagi havo iliqroq bo'ladi.
- Muzlatgich bo'linmasi qishda yetarli darajada sovuq bo'lmasa, muzlatgich tugmasini Balandga o'rnatish (4/5/●/●●).
- Muzlatgich, Energiya va Saqlash sinovida haroratga yetish uchun Muzlatgichning boshqaruv qiymatini "●" yoki "●●"ga o'rnatish talab qilinishi mumkin.



Faqat oddiy rusumlar uchun




Faqat Quvvat DoimiySovutish rusumlari uchun

* Rusum turiga qarab qo'llaniladi

ISHLATISH AMALLARI

MUZLATGICH BO'LINMASINI BOSHQARISH

☐ ICHKI BOSHQARUVCHI RUSUMI UCHUN



Sovutgich bo'linmasi boshqaruv tugmasining boshlang'ich harorati **NORMAL**.

Sovutgich haroratini boshqarish uchun **REF HARORATNI BOSHQARISH** tugmasini bosing.

Tugmani bosgan paytingizda LED chirog'i miltillaydi. Harorat sovutishda **MIN**dan **MAKS**gacha 7 bosqichda o'rnatilgan. (**MIN** = eng iliq, **MAKS** = eng sovuq harorat)

☐ TASHQI BOSHQARUVCHI RUSUMI UCHUN

Display rasmi sovutgichingiz turiga qarab farqlanishi mumkin.

• 'A' ekrani



• 'B' ekrani



- Sovutgich haroratini boshqarish uchun 'FRIDGE' tugmasini bosing.
- Tugmani bosgan paytingizda LED chirog'i miltillaydi.
- Gigiyenik yangi holda saqlash dvigatelini ishga tushirish uchun 'Hygiene Fresh' tugmasini bosing (ixtiyoriy).
- LED lyuminisent chirog'idagi raqam sovutgich bo'linmasidagi haroratni bildiradi.
- Siz kerakli sozlama nuqtasini '0°C'dan '6°C'gacha o'rnatishingiz mumkin.

• 'A' ekrani

- (b) tugmasini bosing, Sovutgich harorati har bir bosganingizda 1°C darajaga tushadi.
- (a) tugmasini bosing ,1) Gigiyenik yangi holda saqlash motori ishga tushadi. 2) Quvvat rejimi YOQILADI 3) O'CHADI.

• 'B' ekrani

- (c) tugmasini bosing, Sovutgich harorati har bir bosganingizda 1°C darajaga tushadi.
- (d) tugmasini bosing, Sovutgich harorati har bir bosganingizda 1°C darajaga ko'tariladi.

ISHLATISH AMALLARI

TEZ SOVUTISH / SUPER SOVUTISH*

Sovutgich birinchi bor yoqilganda EXPRESS FREEZE / SUPER CHILL xususiyati YONADI. Kompresor va sirkulyatsion ventilyator haroratni tez tushirish uchun maksimal sovutish quvvatida ishlaydi. U avtomatik tarzda o'chadi.

Agar sovutgich ichiga issiq narsa qo'yilsa, EXPRESS FREEZE / SUPER CHILL boshqaruv panelidagi tugmani bosish bilan ishga tushadi. EXPRESS FREEZE / SUPER CHILL harorat tegishli darajaga yetganida o'zi o'chadi, yoki EXPRESS FREEZE / SUPER CHILL tugmasini bosish orqali o'chirish mumkin.

TEZ MUZLATISH* (Tashqi Micom uchun)




'A' ekrani



'B' ekrani

SUPER SOVUTISH* (Ichki Micom uchun)

Ichki boshqaruvchi rusumi uchun



BOLADAN HIMOYALAB QULFLASH (IXTIYORIY)

BOLADAN HIMOYALAB QULFLASH

Bolalardan himoyalab qulflash funksiyasini faollashtirish uchun Qulflash tugmasini 3 soniya davomida bosib turing. U qulflangandan so'ng, Qulflangan LED chirog'i yonadi va boshqa tugmalar ishlamaydi. Qulfdan chiqarish uchun Bolalardan himoyalab qulflash tugmasini qaytadan 3 soniya davomida bosib.

Izoh: Agar sovutgich o'chirilsa, ushbu xususiyat o'zini o'zi qulfdan chiqaradi.




'A' ekrani



'B' ekrani

OCHILADIGAN BURCHAK (IXTIYORIY)

- Eshik ochilganida, iliqroq harorat yangi holda saqlash hududiga ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois siz undagi taomni yaxshiroq holatda saqlashingiz mumkin.
- Joylashtirilgan ochiladigan burchakni o'z joyiga qo'yish shart. Agar eshik ochilsa, o'z vazifasini bajara olmaydi.



Tugma holati saqlanadigan mahsulot turiga qarab sozlanishi kerak.



Sabzavot / Mevalar uchun
qutida kamroq sovutish

... TEMP. CONTROL ...



Baliq / Go'sht / Sut mahsulotlari
qutisida yuqori sovutish


* Rusumga qarab qo'llaniladi

ISHLATISH AMALLARI

Eshikdagi ionizatsiya va sovutish / Eshikdagi tokchalarni tez sovutish (Ixtiyoriy)

- Quvur ustidagi anion qoplama havoni tozalaydi va saqlanayotgan oziq-ovqatni yangi holatda uzoq vaqt qoldiradi.
- Agar begona narsalarning suvi tozalash paytida sovuq havo darchasiga kirib qolsa, samaradorlik pasayadi. Shuningdek, agar prokladka shikastlangan bo'lsa, sovuq havo chiqib ketishi tufayli samaradorlik qisqarishi mumkin.



Sovuq havo chiqish yo'li



SABZAVOTLAR UCHUN TORTMA (IXTIYORIY)

Yangi holda saqlash uchun yacheykali quti

U sabzavotlaringizning namligini ushlab ularni yangi holda saqlaydi va aynitmaydi.




MUZDAN TUSHIRISH

- Muzdan tushirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi.
- Muzdan tushirilgan suv sovutgichning orqa tarafida joylashgan bug'lanish chiqib ketadigan tarnovcha orqali avtomatik tarzda chiqib ketadi.

DEZODORAT (IXTIYORIY)

- Oziq-ovaqt bo'linmasidagi yoqimsiz hid foydalanuvchi va oziq-ovqatga zarar yetkazmagan holda xushbo'ylantiriladi.




Foydalanish usuli

- Dezodorat yangi holda saqlash oziq-ovaqt bo'linmasidagi havo aylanishning kiruvchi qismida joylashganligi tufayli, unga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.
- Sovutish havo darchasiga o'tkir narsa sanchmang, aks holda dezodorat shikastlanishi mumkin.
- Hidi qattiq bo'lgan oziq-ovqatlarni saqlaganda o'rang yoki qopqoqli idishda saqlang, aks holda hidi boshqa mahsulotlarga o'tishi mumkin.

Dezodoratdan qayta foydalanish

- Dezodoratni tiklash va qayatdan foydalanish mumkin.
- Dezodoratni sovutgichdan ajratib
- Namlik yoki ko'lansa hidni ketkazish uchun soch quritish fenidan foydalaning va ultraviolet yordamida hid uchib ketish uchun quyosh nuri ostida oksidsizlantiring.



ISHLATISH AMALLARI


MUZ HOSIL QILISH (IXTIYORIY)

Burama muz hosil qilish

- Muz bo'lakchalarini hosil qilish uchun patnis idishni suv bilan to'ldiring va o'zining joyiga joylashtiring.

Muz patnisi


Muz Kubiklari Qutisi



- Muz bo'lakchalarini chiqarish uchun patnis tutqichidan tutib uni sekin to'nkaring. Muz bo'lakchalari muz qutisiga tushadi.

! OGOHLANTIRISH

- Suvdan boshqa hech narsadan foydalanmang.
- Suvni ko'rsatilgan chiziqqacha to'ldiring.



SUV DISPENSERI (IXTIYORIY)


- Suv baki joyiga qo'yilgandan so'ng, suv bilan to'ldiring.
- Suv baki foydalanilmaganda, uni tozalab turish uchun chiqarib turing.

Suv baki to'ldirilgandan so'ng o'z joyiga tushmasa, suv klapandan sizib chiqishi mumkin.

- **Suv bakini suv bilan to'ldiring.**

1. Qopqoqni oching va bakni suv bilan to'ldiring.
2. Qopqoqni yoping.
3. Suv baki ixtiyoriy olinadigan qism bo'lib, uni saqlash hajmini oshirish uchun qo'llanilishi mumkin. Siz suv bakini olib tashlab tepadagi savatdan teshigini yopib foydalanishingiz mumkin.

Javon tuxum tagligiga qo'shilgan.



Diqqat

Suvdan boshqa hech narsadan foydalanmang, hatto issiq suvni muzlatish uchun suv bakiga qo'ymang.

Suvni belgilangan darajadan oshirib yubormang.

- **Ichimlik suvi**

1. Dispenser panelini stakan bilan bosing.
2. Dispenser paneli bosilganda suv chiqadi. Stakanni olganda panel o'z joyiga qaytadi va suv oqishi to'xtaydi.



AQLLI DIAGNOSTIKA (Faqat tanlangan Tashqi Micom modellari uchun)



Aqlli diagnostika funksiyasi bu...

Bu funksiyadan sovutgich noto'g'ri ishlaganda yoki ishlamaganda Mijozlar qo'ng'iroqlarini qabul qilish markaziga qo'ng'iroq qilish va aniq tashxis olish uchun foydalaning. Undan faqat maslahatchi tomonidan maslahat berilgan hollardagina foydalaning.

Funksiyadan qanday foydalaniladi

1. Sovutgich eshiklarini yoping va uni qulflash uchun ekrandagi qulflash tugmasini bosib ushlab turing.

Agar ekran allaqachon qulflangan holatda bo'lsa, uni ochish uchun qulflash tugmasini bosib ushlab turing, so'ngra qaytadan qulflash uchun yana bosib ushlab turing.




! DIQQAT

Agar qulflangan holatda 5 daqiqa o'tsa, aqlli diagnostika funksiyasi ishga tushmaydi, shuning uchun ehtiyot bo'ling.

2. Muzlatgich harorati tugmasini 3 soniya va undan ko'proq ushlab turing. (Barcha aks etish ekranlari o'chadi, va bir ozdan so'ng muzlatgich harorat ekrani qismida 3 raqami aks etadi).



Gigiyenik yangi holda saqlash filtriga ega model




Gigiyenik yangi holda saqlash filtriga ega bo'lmagan model

Ogoh bo'ling!

- Mintaqaviy qo'ng'iroq sifati funksiyaga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.
- Agar uy telefonidan foydalansangiz, yaxshiroq aloqa yaxshiroq xizmat ko'rsatish imkonini beradi.
- Aqlli diagnostika ma'lumot uzatishi qo'ng'iroq sifati muammolari tufayli yaxshi amalga oshmasligi mumkin, va bunday holatda aqlli diagnostika xizmati qiyinlashishi mumkin.

3. Sovutgichning barcha bo'lmalarini va eshiklarini oching, telefon karnay teshigini tepa o'ng tarafga ushlang.

Telefonning gapiruvchi qismi (mikrofoni) karnay darchasiga qaratilganligini tekshiring.



4. Ma'lumot uzatilayotgan paytda telefonni uzoqlashtirmang.

Aqlli diagnostika qilish uchun ma'lumot uzatilayotgan paytda telefonni tepa o'ng qismdagi karnay darchasi oldiga qo'yib kuting. Ma'lumot uzatishning qolgan vaqti ekranda aks etadi.

! DIQQAT

Uzatish tovushi g'ashga tegishi mumkin. Diagnostika to'liq amalga oshirilishi uchun, tovush to'xtagunga qadar telefonni uzoqlashtirmang.

5. Ma'lumot uzatish nihoyasiga yetganga, aqlli diagnostika natijasi haqida maslahatchining tushintirishini tinglang.

Ma'lumot uzatish tugaganida, ma'lumot uzatish ekranlari bilan birga sovutgich avtomatik tarzda o'chadi va bir necha soniyadan so'ng qaytadan yonadi. Aqlli diagnostika natijasi haqida maslahatchining tushintirishini tinglang va ko'rsatmalarini bajaring.

AQLLI DIAGNOSTIKA (Faqat tanlangan Tashqi Micom rusumlari uchun)




Aqlli diagnostika funksiyasi bu...

Bu funksiyadan sovutgich noto'g'ri ishlaganda yoki ishlamaganda Mijozlar qo'ng'iroqlarini qabul qilish markaziga qo'ng'iroq qilish va aniq tashxis olish uchun foydalaning. Undan faqat maslahatchi tomonidan maslahat berilgan hollardagina foydalaning.


Funksiyadan qanday foydalaniladi

Avval LG xizmat ko'rsatish markaziga qo'ng'iroq qiling. Aqlli diagnostika funksiyasidan faqat LG qo'ng'iroqlarni qabul qilish markazi agenti tomonidan shunday ko'rsatma berilgan hollardagina foydalaning.

1. Sovutgichning barcha eshiklarini oching.
2. Sovutgichning boshqaruv tugmasini 3 soniya yoki ko'proq bosang.



3. Agar aloqa signali 4 marta ovoz bersa, (SDS aloqa signalining chastotasi 2000 Gts, 0,2 son O'chir/ 0,2 son Yoq 4 marta) telefonni eshik ilgagi yuqori o'ng qo'l tomonidagi karnay tirqishiga yaqinroq joylashtiring.
4. Telefon mikrofonining karnay tirqishiga qarab turganligiga ishonch hosil qiling.



5. Ma'lumotlar o'tkazilayotgan vaqtda telefonni olib qo'ymang.



DIQQAT

Uzatish tovushi g'ashga tegishi mumkin. Diagnostika to'liq amalga oshirilishi uchun, tovush to'xtagunga qadar telefonni uzoqlashtirmang.

6. Aqlli tashxislash uchun ma'lumotlar o'tkazish vaqtida telefonni karnay tirqishidan 10 sm masofada ushlang va fonda shovqinlar bo'lmasligiga harakat qiling. SDSni kiritgandan keyin SDS aloqa signali jiringlaydi. Ma'lumotlarni o'tkazish tugaganidan keyin maslahatchi aqlli tashxis natijalarini tushuntiradi va tegishli maslahatlar beradi. Ma'lumotlarni o'tkazish yakunlangach, muzlatgich avtomatik ravishda o'chadi va bir necha soniyadan keyin yonadi.

Ogoh bo'ling!

- Mintaqaviy qo'ng'iroq sifati funksiyaga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.
- Agar uy telefonidan foydalansangiz, yaxshiroq aloqa yaxshiroq xizmat ko'rsatish imkonini beradi.
- Tarmoq qabul qilinishi qiyin bo'lgan mobil telefondan qo'ng'iroq qilinganda aqlli tashxisning ma'lumotlar uzatishi muvaffaqiyatli bo'lmasligi mumkin

ISHLATISH AMALLARI

GIGIYENIK YANGI HOLDA SAQLASH (IXTIYORIY)

DIQQAT

Mahsulotni o'rnatishdan yoki undan foydalanishdan oldin, mahsulotni to'g'ri ishlatish uchun foydalanuvchi qo'llanmasini yaxshilab o'qib chiqing. Ushbu GIGIYENIK YANGI HOLDA SAQLASH filtri sovutgich ichidagi virus va bakteriyalarni yo'q qiluvchi antibakterial funksiyasiga egadir, dezodorat funksiyasi esa hidlarni yo'qotadi.

Funksiya tekshirilib tegishli institutlar tomonidan tasdiqlangan. **Intertek**

Rejimlardan rejimga o'tkazish

Rejimlardan rejimga o'tkazish

- GIGIYENIK YANGI HOLDA SAQLASH filtridan foydalanish uchun eshikning ekran panelida O tugmasini bosing va Avto yoki Quvvat rejimiga o'tkazing. (Tugmani bosganingizda, GIGIYENIK YANGI HOLDA SAQLASH filtri
AVTO → O'CHGAN → QUUVAT → O'CHGANga o'tadi).

HYGIENE FRESH
WASH AREA



old qismidagi



O'CH.



AVTO



QUUVAT



O'CH.

! DIQQAT

Foydalanuvchi AVTO yoki QUUVAT rejimiga o'zgartirganda, LED chirog'i ham yonadi. Filtr atrofidagi LED chirog'i ham yonganini tekshirish uchun eshikni oching. Ventilyator ichiga barmog'ingizni yoki begona narsalarni tiqmang. U sizni jarohatlashi yoki o'zi shikastlanishi mumkin.

! DIQQAT

- Gigiyenik yangi holda saqlash filtrini suv bilan yuvmang, chunki u shikastlanishi mumkin.
- Filtr hamma ham bakteriya va virus turlari uchun samarali bo'lmisligi mumkin.
- Bu sovutgich ichidagi taomda bo'lmagan bakteriyalarni yo'qotish uchun samarali.

GIGIYENIK YANGI HOLDA SAQLASH filtrini yaqiningizdagi distribyutor yoki xizmat ko'rsatish markazidan sotib olishingiz mumkin.

INVERTOR-YOQILGAN REJIM PAYTIDA LED NAMUNA

Bu xususiyatdan foydalanish paytida LEDning bu namunasi ishlayotganligini sezasiz. Bu mahsulot asosiy energiya talabiga ko'ra ishlayotganligi belgisidir. Elektr energiya o'chirilgan paytda LED parametrlari o'zgartirish uchun, agar kerak bo'lsa, "REF TEMP" tugmasini bosish mumkin. Keyin LED parametrlari kerakli sifatda ko'rsatadi. Rejim Normal quvvat ta'minotidan Invertor rejimiga va aksincha o'zgartirilganda, o'zgarish namoyish qilinishi uchun LED namunasiga bir oz vaqt kerak bo'ladi.

ISHLATISH AMALLARI

QUVVAT UZILISHIDA DOIMIIY SOVUTISH (IXTIYORIY)

Quvvat uzilishida doimiy sovutish bu elektr toki uzilganda noyob sovuqlikni saqlab qolish va muzlatgich hamda sovutgich bo'linmasidan issiqlikni chiqarish.

Ushbu funktsiya LG Electronics kompaniyasining patentlangan texnologiyasidir.



DIQQAT

"Quvvatdan uzishda doimiy sovutish" xususiyati ishlayotganda ichki devorlarda shabnam hosil bo'lishi mumkin. Bu normal holat hisoblanib mahsulot ishlashiga zarar yetkazmaydi. Elektr toki tiklanganda, ichki devorlardagi shabnam avtomatik tarzda yo'qoladi. Shabnam juda katta miqdorda bo'lsa, iltimos, uni yumshoq mato bilan artib tashlang.

Tok O'CHGANDA/YOQILGANDA klapan ishga tushadi va bir martalik signal chalinadi.

- Klapan qopqog'ini ochmang.
- Muzlatgich bo'linmasidagi PCM bakini (tepa qismida o'rnatilgan) yechmang.
- Sovutgichingizni birinchi bor o'rnatganingizda, mahsulot bilan to'ldirishdan oldin harorati barqarorlashish uchun 24 soat davomida qoldiring. Elektr toki uzilgan taqdirda, u uzilgan vaqtdan so'ng toki maksimal sovuq havo qobiliyati qaytarilguncha 8 soatdan keyin qayta tiklanishi kerak.

Doimiy sovutish funksiyasini yaxshiroq ishlatish uchun muhim nuqtalar.

- 1) PCM tegishli ravishda muzlatilmagan bo'lsa, doimiy sovutish kuchsizlanishi mumkin.
- 2) Doimiy sovutish funksiyasini ishlagan holda qoldirish uchun muzlatgich tugmasini isitish sozlanmasiga o'tkazmang (1-2).
- 3) Elektr toki uzilgan paytda sovuqni uzoq vaqt davomida ushlab turish uchun eshikni tez-tez ochmang.

CHIROQNI ALMASHTIRISH

ESLATMA: Bu mahsulotda foydalanuvchi tomonidan almashtirib bo'lmaydigan LED chirog'i qo'llanilgan. Iltimos, chiroqni almashtirish uchun vakolatli xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling.

INVERTOR-YOQILGAN XUSUSIYATI (Ixtiyoriy)

1. Bu xususiyatdan foydalanganda sovutgich mahsulot tomonidan talab qilingan asosiy talablarda ishlaydi.
2. Invertor-Yoqilgan xususiyatining natijalari invertorda ishlayotgan qurilmalar soniga bog'liq bo'ladi.
3. Invertor-Yoqilgan rejimi vaqtda muzlatgich optimal ishlashi uchun foydalanilmayotgan boshqa qurilmalarni o'chirib qo'yish tavsiya qilinadi.
4. Iste'mol qilishdan avval taomlarning sifatini tekshirish tavsiya qilinadi.
5. Bu xususiyatdan foydalanish paytida muzqaymoq va hokazolar yumshoq bo'lishi mumkin, agar shunday vaziyat bo'ladigan bo'lsa, har bir kishining xohishiga ko'ra parametrlarni o'zgartirish tavsiya qilinadi.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASH BO'YICHA TAVSIYALAR

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASH

- Yangi mahsulotlarni sovutgich bo'linmasida saqlang. Mahsulotning muzlashi va erishi uning yangi holda va xushbo'yiligini saqlash uchun muhim omildir.
- Banan, qovun kabi past haroratlarda buzilishi oson bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini muzlatgichga joylashtirmang.
- Issiq oziq-ovqatni sovutgichga qo'yishdan oldin tashqarida bir oz sovish uchun qoldiring. Sovutgich ichiga qaynoq oziq-ovqatlarni qo'yish, yonidagi taomning aynishiga va ko'proq elektr toki xarajatiga olib keladi.
- Mahsulotni saqlaganda uni vinil tasma bilan o'rang yoki qopqoqli idishga joylashtiring. Bu namligining bug'lanib ketishidan saqlaydi va ta'mi hamda foydali moddalarini o'zida olib qolishga yordam beradi. Bu shuningdek, bitta mahsulotning hidi va ta'mi boshqa mahsulotga o'tishning oldini oladi.
- Havo aylanish darchalarini oziq-ovqat bilan to'sib qo'ymang. Sovuq havo bir tekis aylanishi sovutgich haroratini bir maromda ushlaydi.
- Eshikni ko'p ochmang. Eshikni ochish issiq havoning sovutgich ichiga kirishiga va haroratning ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

MUZLATGICH BO'LINMASI

- Muzlatgich bo'linmasida shisha idishlarni saqlamang - ular muzlaganda sinishi mumkin.
- Eritilgan mahsulotni muzlatmang. Bu narsa ta'mi va foydali moddalari yo'qolishiga olib keladi.
- Muzqaymoq kabi muzlatilgan narsalarni uzoq vaqt davomida saqlasangiz, ularni eshik javoniga emas, balki muzlatgich javoniga qo'ying.
- Muzlatish uchun joylashtirish - Yangi mahsulotlarni muzlatish uchun quyidagi tartibda muzlatgichga yuklanadi:




Yangi Qo'yilgan Oziq-ovqat

-  belgisiga ega muzlatgich eshigidagi savat -12°C darajali bo'linma bo'lib qisqa muddatli muzlatilgan mahsulot saqlash uchun mo'ljallangan (ixtiyoriy).

SOVUTGICH BO'LINMASI

- Usti ho'l mahsulotlarni sovutgichning ichkarisidagi tokchalarga qo'ymang, ular to'g'ridan-to'g'ri urgan muzdek havodan mahsulotni muzlab qolishi mumkin. Buning oldini olish uchun mahsulotni o'ralgan idishda saqlagan yaxshi.
- Nam mahsulotni (ayniqsa sabzavot va mevalarni) sabzavotlar bo'linmasida saqlagan maqsadga muvofiq. Agar ularni tokchada saqlash zarur bo'lsa, ichkari devordan uzoqroqda eshikga yaqin qilib joylashtiring toki sovuq havo tegib mahsulot muzlab qolmasin.
- Sovutishdan oldin mahsulotni doimo arting. Sabzavot va mevalar yuvilib artilishi kerak, va qadoqlangan mahsulot yaxshilab artilishi kerak, aks holda yonida turgan mahsulotga ta'sir qilib aynishi mumkin.
- Tuxumlarni tuxum saqlash tokchasida saqlaganingizda, ularning aynimaganligiga ishonch hosil qiling va ularni uzoq muddat aynimay saqlanishi uchun tepaga qaratib joylashtiring.



TOZALASH

SUV DISPENSERI

Panjara -

Toza, nam mato bilan arting so'ngra quruq mato bilan quritib arting.



Suv baki -


1. Suv to'ldirish

Suv bakini to'ldirish uchun uni chiqarish shart emas (uning qopqog'ini ochib joyida to'ldirish mumkin).



Izoh

- Eshigini yopishdan oldin qopqog'ini mahkam yoping.
- Shakar yoki gazlangan ichimliklarni qo'ymang.



2. Chiqarib olish

Suv bakini yonlaridan ushlab ko'taring va torting.




Izoh

Suv bakini yechishdan oldin suvni dispenserdan to'kib tashlang.

3. Yig'ish

Agar biron bir sabab bilan suv bakining joyi o'zgarsa, uni o'zining joyiga joylashtiring. Klapan eshik darchasiga to'g'ri o'tirganligini tekshiring. Yig'ilgandan so'ng bakni pastga bosib joylashuv hoshiyasi bilan bir tekis ekanligini tekshiring.



Ushbu yo'riqnoma turli modellarni o'z ichiga olgan. Siz xarid qilgan sovutgich yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarning ba'zilariga yoki barchasiga ega bo'lishi mumkin.


TOZALASH

Suv baki -

1. Bak qopqog'ini oling.



2. Suv bakining ichki va tashqi qismini tozalang. Qopqog'ni bakka o'rnatib va uni idish yuvish suvi bilan yuving va suv bilan yaxshilab chayib tashlang. Suvni quruq mato bilan artib tashlang.



3. Qoplama va qopqog'ini idish yuvish vositasi bilan yuving va suv bilan yaxshilab chayib tashlang. Suvini mato bilan artib tashlang.



Yiqimsiz hidlar paydo bo'lishining oldini olish uchun, sovutgichingizni doimo toza tuting. To'kilgan taomni darhol artib tashlang, chunki u oksidlanib plastik yuzalarda dog'lar paydo bo'lishiga olib keladi. Har qanday yuzasiga metal gubkalar, cho'tkalar, abraziv tozalash vositalari yoki ishqorli suyuqliklardan foydalanmang. Tozalashdan oldin shu narsani yodda tutingki, nam predmetlar o'ta sovuq narsalarga yopishib qolishi mumkin. Muzlagan yuzalarni nam yoki ho'l qo'llaringiz bilan tegmang.

TASHQI - Sovutgichingizning qattiq yuzalarini iliq sovunli suv bilan tozalang. Toza, nam mato bilan artib so'ngra qurutib arting.

ICHKI - Ichki va tashqi qismlarni tez-tez tozalab turish tavsiya qilinadi. Sovutgichingizning qattiq yuzalarini iliq sovunli suv yoki idish yuvish suyuqligi bilan sovutgich qattiq yuzalarini tozalang. Toza, nam mato bilan artib so'ngra qurutib arting.

ICHKI QISMLAR - Bo'linma javonlarini, eshik tokchalarini, saqlash patnislarini va eshikning magnit zichlagichlarini va h.k.larni yuving. Iliq sovunli suv yoki idish yuvish suyuqligi bilan sovutgich qattiq yuzalarini yuving. Toza, nam mato bilan artib so'ngra qurutib arting



OGOHLANTIRISH

Tozalashdan oldin doimo elektr simini rozetkadan ajratib. Suyuqlikning elektr qismlariga kirib elektr toki urishining oldini olish uchun ortiqcha namlikni mochalka yoki mato bilan artib yuboring. Yonuvchan yoki zaharli suyuqliklardan foydalanmang.

- Tozalash bo'yicha ogohlantirish - Foydalanilmasin: Yuza uchun faol moddalar, avtomashina polirovkasi, korroziyaga qarshi vosita, benzin, ishqorlar va mum.
- Yumshoq yuvish vositalari, idish yuvish suyuqliklari va sovunli suvdan foydalanish mumkin.
- Beparvo foydalanish rangning o'zgarishiga olib keladi.



Diqqat

1. Tozalaganda iliq suvdan foydalaning.
2. Suv baki: Suvdan boshqa hech narsadan foydalanmang. Agar boshqa suyuqlikdan foydalanilsa, bakni suv bilan uch-to'rt marta yuvib tashlang.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

TA'TIL VAQTI

Muayyan muddat ta'til vaqtida sovutgichni ishlagan holda qoldirishni xohlashingiz mumkin. Muzlatiladigan narsalarni muzlatgich ichida uzoqroq muddatga qoldiring. Uzoq vaqtga ketishni rejalashtirsangiz, ichidagi barcha mahsulotlarni chiqarib tashlang, simini rozetkadan uzing, ichki qismini yaxshilab tozalang va hid hosili qilinishining oldini olish uchun eshiklarini OCHIQ qoldiring.

QUVVATDAGI UZILISH

Ba'zi elektr uzilishlar bir yoki ikki soatda tuzatiladi va bu narsa muzlatgichdagi harorat ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi. Biroq, jihoz elektr toki bilan ta'minlanmayotgan vaqtda, uning eshigini kamroq ochib-yoping. Elektr uzilishi uzoqroq vaqt davom etsa, muzlagan qadoqlar ustiga quruq muz bo'laklarini qo'ying.

AGAR KO'CHSANGIZ


Sovutgich ichidagi mahkamlanmagan narsalarni chiqarib tashlang yoki mahkam qotiring. Daraja boltlarini shikastlashning oldini olish uchun ularni oxirigacha burab tashlang.

ANTI-KONDENSAT QUVURI

Sovutgichning tashqi devori ba'zan qizishi mumkin, ayniqsa o'rnatgandan so'ng. Xavotir olmang.

Bu anti kondensat quvuri tufaylidir, u issiq sovutuvchi modda "terlab" ketishining oldini olish uchun tashqi devor ichidan nasos bilan haydaydi.

Anti-Kondensat Quvuri



Diqqat

Elektr toki urishidan ogohlantirish

Kuygan chiroqni almashtirishdan avval sovutgich simini rozetkadan uzing yoki avtomatdan uni o'chiring.

IZOH: Tugmani O'CHIRILGAN holatga o'zgartirish chiroqdan tokni o'chirmaydi.

MUHIM OGOHLANTIRISHLAR

UZATMA SIMIDAN FOYDALANMANG

Agar imkoni bo'lsa, sovutgichni o'zining individual rozetkasiga ulang, bu boshqa moslama va uy chiroqlarni ulab yuklanishni hosil qilishi mumkin.

ROZETKAGA YETISH QULAYLIGI

Sovutgich-muzlatgich shunday holatda bo'lishi kerakki, agar biron bir hodisa yuz bersa, uni tez ajratish qulay bo'lishi lozim.

ELEKTR SIMINI ALMASHTIRISH

Agar elektr simi shikastlangan bo'lsa, u xavfning oldini olish uchun ishlab chiqaruvchi yoki uning xizmat agenti, yoki malakali mutaxassis tomonidan almashtirilishi kerak.

YERGA ULANADIGAN SIM HAQIDA


Qisqa elektr tutashuvi yuz bergan holda, elektr toki ana shu ulangan sim orqali chiqib ketadi va elektr zarbasidan saqlaydi.

Elektr zarbasi urishining oldini olish uchun, ushbu moslama ham yerga ulanishi kerak.

Yerga ulashdan noto'g'ri foydalanish elektr quvvatidan zarba olishga sabab bo'lishi mumkin. Agar yerga ulash ko'rsatmalarini yaxshi tushunmagan bo'lsangiz, yoki yerga ulashni to'g'ri amalga oshirganlik haqida shubhangiz bo'lsa, malakali elektrik mutaxassisiga murojaat qiling.

ELEKTR TARMOG'IGA ULASH SIMINI o'zgartirmang yoki uzaytirmang.

Elektr toki urishi yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin.



MUHIM OGOHLANTIRISHLAR

JUDA XAVFLI JALB QILISH PREDMETI

Bo'sh sovutgich bolalarni o'ynash uchun jalb qiladigan predmeti bo'lishi mumkin. Ishlatilmayotgan sovutgichdagi zichlagich, qulf yoki eshigini to'liq olib tashlang, yoki boshqa xavfsizlik choralarini ko'ring.

Ushbu qurilma tegishli tarzda yerga ulangan bo'lishi kerak.

UNI HOZIROQ AMALGA OSHIRING.

Sovutgich ichida yonuvchan, portlovchi yoki kimyoviy moddalarni saqlamang.

Eski moslamangizni chiqitga chiqarish

Ushbu moslama qayta qo'llaniladigan yoki ishlatiladigan suyuqliklar (sovutuvchi modda, moy)ga ega bo'lishi va materiallardan yasalgan bo'lishi mumkin.

Barcha muhim materiallari ishlatib bo'lingandan so'ng chiqitni yig'ish markaziga yuborilishi kerak. Qaytarib berish uchun mahalliy agentga murojaat qiling.

"(CENELEC mamlakatlari uchun) Joriy asbob 8 yosh va undan katta bolalar va jismoniy, eshitish va aqliy qobiliyati zaif yoki malakasiz va bilimsiz shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin, agar ularga asbobdan xavfsiz usulda foydalanish va tegishli xatarlar tushuntirilishi bo'yicha savollarga tegishli boshqaruv yoki ko'rsatmalar berilgan bo'lsa. Bolalar asbob bilan o'ynamasliklari kerak. Tozalash va texnik xizmat ko'rsatish qarovsiz bolalar tomonidan amalga oshirilmasligi kerak."

* CENELEC mamlakatlari: AT, BE, BG, HR, CY, CZ, DK, EE, FI, MK, FR, DE, GR, HU, IS, IE, IT, LV, LT, LU, MT, NL, NO, PL, PT, RO, SK, SI, ES, SE, CH, TR, GB

Bu qurilmadan jismoniy, sezish yoki aqliy qobiliyatlari cheklangan yoki bilimi va tajribasi yetarli bo'lmagan shaxslar (jumladan bolalar) foydalanishlari mumkin emas. Ularning xavfsizligi uchun javobgar shaxs tomonidan ushbu qurilmadan foydalanish to'g'risida ularga ko'rsatma bergan yoki nazorat qilib turgan hollar bundan mustasno. Bolalar moslama bilan o'ynamasliklarini nazorat qilib turishingiz kerak.

XIZMAT KO'RSATISH MARKAZIGA QO'NG'IROQ QILISHDAN AVVAL

XIZMAT QO'NG'IROQLARI KO'P HOLLARDA KERAK BO'LMASLIGI MUMKIN!

AGAR SIZ SOVUTGICHINGIZ TEGISHLI RAVISHDA ISHLAMAYOTGANINI HIS QILSANGIZ, AVVAL QUYIDAGI EHTIMOLIY SABABLARNI TEKSHIRING:

MUAMMO	MUMKIN BO'LGAN SABABLAR
SOVUTGICH ISHLAMAYPTI	• Predoxranitel shikastlanmaganmi yoki avtomat otilmaganmi? • Elektr kabeli rozetkadan ajratilmaganmi yoki rozetkada bo'shab qolmaganmi?
SOVUTGICH YOKI MUZLATGICH BO'LINMALARIDAGI HARORAT JUDA ISSIQ	• Harorat boshqaruvi tegishli ravishda sozlanmagan. • Moslama devorga juda yaqin o'rnatilgan yoki issiqlik manbai oldiga qo'yilgan. • Issiq havoda eshik juda ko'p ochilib-yopilmoda. • Eshik uzoq muddat davomida ochiq qoldirilgan. • Sovutgich ichiga juda ko'p mahsulot qo'yilgan.
G'ALATI OVOZ(LAR)	• Sovutgich bo'sh yoki bir tekis bo'lmagan joyga o'rnatilgan yoki daraja boltlarini moslashtirish kerak. • Sovutgichning orqa qismiga keraksiz narsalar qo'yilgan.
SOVUTGICHDA HID BOR	• Qattiq hid chiqadigan mahsulotlarni yaxshilab yopish yoki o'rash kerak. • Ichki qismini tozalab yuvish kerak.
ICHKI QISM YUZALARIDA SUV TOMCHILARI HOSIL BO'LMOQDA	• Yuqori namlik paytida odatiy hol bo'lishi mumkin. • Eshik bir oz ochilib qolgan.



MFL68489002